

**UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA  
ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALARNI  
SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI**

*Nurulloeva Zumrat Amrullo qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Magistratura bosqichi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'rta ta'limda adabiyot fani, uning o'rgatilishi, ilk bosqichlarda o'qitish metodikasi, noan'anaviy metodlar shuningdek darslarni to'g'ri tashkil qilish haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *adabiyot, metodika, mumtoz adabiyot, didaktik, o'qitish usullari, pedagogik vazifalar, zamonaviy adabiyot.*

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishganidan keyin adabiyot o'qitish metodikasi ilmida ham keskin o'zgarishlar yuz bera boshladi. Xususan adabiy ta'lim oldiga ma'naviy komillik sari yuz tutgan avlodni shakllantirish vazifasini qo'ydi. Ma'lumki, Komil shaxs tarbiyalash yuki hamma zamonlarda adabiyotning zimmasida bo'lgan. Bu davr metodistlarining har biri mazkur vazifani o'z imkoniyatlari darajasida uddalashga harakat qilmoqdalar. Hozirgi sharoitda o'quvchilarni ham ruhan, ham aqlan, ham jisman yetuk qilib shakllantirish uchun milliy pedagogika ilmi va uzluksiz ta'lim amaliyotida oldingidan tamomila yangicha yo'sinda ish olib borish taqozo etilmoqda. Ta'limning dastlabki boshlang'ich bosqichi o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda o'qish darslarining o'rni beqiyos. O'qituvchi tomonidan adabiyot kitoblaridagi asarlarni to'g'ri idrok etishga yo'naltirilgan o'quvchi mustaqil ishlashga, uqib o'qishga, o'zgalarning fikrlarini ilg'ashga, o'zi va boshqalarning tuyg'ular olamini kuzatishga va tuyishga o'rgana boradi. Olamni, Odamni va O'zligini kashf qiladi. O'z ichki «men»ning shakllanishida o'zi bevosita ishtirok etadi.

Ta'lim tizimida o'qitishning asosiy ashyosi darsliklar, metodik qo'llanma va tavsiyalar hisoblanadi. O'quv dasturlari esa ta'lim mazmunini ma'lum me'yorga soluvchi hujjatdir. Ayni paytda, adabiyotdan o'quv dasturi mustaqil fikrli, go'zallikni his qilib undan zavq tuyib biladigan, badiiy so'z san'atini tushunadigan, erkin tafakkurli shaxslarni shakllantirishga xizmat qiluvchi, ana shu maqsadni amalga oshirish imkonini beruvchi tadbirlar yig'indisidan tarkib topgan. Amaldagi o'quv dasturida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar har bir sinf bo'yicha alohida ko'rsatilgan. Bu talablarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, o'rganilishi ko'zda tutilgan asarning ta'limiy-pedagogik jihatlari hisobga olingan. O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini aniqlashga bo'lgan talablarda esa asosiy e'tibor badiiy matnning san'at asari sifatidagi o'ziga xosligini tushuntirishga qaratilgan. Bu talablar DTS ko'rsatkichlaridan yuqoriroq bo'lishiga e'tibor qilingan. Mazkur dastur mavzular bo'yicha berilgan badiiy asarlarni o'rganishda o'qituvchi ijodkorligiga tayanib ish ko'rishni taqozo etadi.

Adabiy ta'lim jarayonida adabiy-nazariy bilim berish maqsadlarini aniq belgilangan holda ularni amalga oshirishga keng imkon beruvchi dars shakllarini aniqlab olish ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, darsning maqsad va vazifalariga mos keluvchi metod hamda usullarni to'g'ri tanlash bilan birga ulardan oqilona, samarali foydalana bilish maqsadga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bilamizki, har bir dars avvalgisi bilan mantiqan uzviy bog'lanishni hosil qilishi kerak. Ta'lim metodlari ham ana shunga yo'naltirilgan holda o'quv materialini muayyan ilmiy-metodik tizim asosida o'quvchiga yetkazishga, o'quvchilarning bilimlarini samarali tarzda o'zlashtirishlari uchun qulay sharoit tug'dirishga yordam beradi va ularni shu bilimlarni o'z faol amaliy izlanishlari orqali egallab borishlarini kafolatlaydi.

Metodist olimlar V.Kudryavsev, V.Maransman, N.Mochalova, A.Matyushkin, S.Dolimov, A.Zunnunov, N.Hotamov, Q.Axmedov, S.Ismatov, T.Boboyev, Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, T.Niyozmetovalar o'z tadqiqot ishlarida o'quvchining bilimlarini o'zlashtirishdagi faolligini oshirishda: suhbat, muammoli ta'lim, evristik, izlanish singari metodlari imkoniyatga boyligini alohida

ta'kidlab o'tganlar. Ta'limning bunday metodlari o'rganilayotga o'quv materialidan muhim o'rinlarni ajratish, hodisalarni umumiy yoki xususiy jihatlariga ko'ra taqqoslash, tasniflash, aniqlik kiritish, o'z farazlarini shakllantirish va isbotlashga qulay sharoit tug'diradi. O'quvchilarning mustaqoil va mantiqiy tafakkur yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

1. **Nasriy asarlarni o'rgatish samaradorligini oshirish.** Nasr mumtoz adabiyotda unchalik katta o'rin egallamaydi. Aksariyati diniy didaktika bilan yo'g'rilgani sababli mustaqillikdan keyin umumta'lim maktablari adabiyot dasturlariga quyidagi nasriy mumtoz asarlar kiritildi: Kaykovusning "Qobusnoma" 5- sinf (2004 yilgi nashr); Sa'diy Sheroziyning "Guliston" 5-sinf (2007), "Guliston" 10- sinf (1995); Rabg'uziy, "Qisasi Rabg'uziy" 5-sinf (1997), 6-sinf (2002, 2005), 9- sinf (1993, 2006), 10-sinf (2004); Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy", 8-sinf (1997), 9- sinf (1993), 10- sinf (2004); Navoiy, "Mahbub ul-qulub" 5-sinf (2004), 6- sinf (2008 yilgi dastur), "Tarixi muluki ajam" 8-sinf (1997), "Muhokamat ul-lug'atayn" 10-sinf (1993); "Boburnoma", 7-sinf (1995), 9-sinf (2006), 10-sinf (1993), 10- sinf (2004); Xoja, "Miftoh ul-adl", "Gulzor", 5-sinf (1997), 10-sinf (2004); Mashrab, "Qissai Mashrab", 9-sinf (2006), 10-sinf (1993); Gulxaniy, "Zarbulmasal", 6 Xullas, darsliklarga kiritilgan asarlarni mumtoz hikoyalar, qissadan parchalar, masallar, ilmiy hamda ilmiy-badiiy asarlardan parchalar va pandlar tashkil etadi. Mumtoz nasrga xos siqqlik, har bir so'z, ibora va jumlagi katta badiiy va fikriy salmoq yuklash xususiyati hikoyalar, qissalar va masallar mujassam bo'lib, oxirida qissadan hissa chiqartirishni, ya'ni xulosalashni o'quvchiga o'rgatish lozim. Bunga quyidagi usullar orqali erishish mumkin: 1) matn bilan tanishuv; 2) mazmunni qayta so'zlatish; 3) obrazlar ustida ishlash; 4) asar badiiyati ustida ishlash; 5) hayotiy umumlashmalar chiqarish.

2. **Liro-epik asarlarni tahlil qilish uslubiyatini yaratish.** Liro-epik asarlaridan namunalar o'rta maktablarning barcha (V–XI) sinflarida shu atama (liro-epik) qo'llanilgan holda o'qitilmoqda. Bu turdagi ko'rkam bitiklar o'quvchilarning hayotni epik ko'lamda idrok etish, odam, olam va yaratgan oldidagi burch, mas'uliyatni anglash, har bir hodisa, tasvir, narsa zamiridagi botiniy haqiqatlarni his

etish qobiliyatini shakllantiradi, rivojlantiradi. Ma'lumki, sharq mumtoz adabiyotida ramziylik tasvirning yetakchi usuli sanaladi. Shuning uchun hayot voqealari epik ko'lamda hissiy munosabat tarzida tasvirlangan asarlarni o'qitishda syujet voqealarining zohiriy mazmunini bayon etish bilangina cheklanib qolmay, ular vositasida talqin etilgan, ramz tili bilan bayon qilingan mohiyat sharhlanishi lozim, deb o'ylaymiz. Alisher Navoiy hazratlari aytganlaridek: "Ko'ngul maxzaninining qulfi til va ul maxzanning kalidin til bil"<sup>1</sup>, "Badiiy so'z arshi a'losidan yerga tushirilib, turmush muammolarini hal etishga xizmat qildirila boshlan"gan XIX asrdan she'riyat va nasrda bo'lgani kabi liro-epik turda ham realistik tasvir va ifodalar yetakchi mavqe tutgan asarlarga esa o'ziga xos yondashuv talab etiladi. "Ko'rinadiki, realist san'atkor hayot qa'rida yotgan haqiqatni kashf etuvchi, uning ko'p qirrali va qarama-qarshi tomonlarini ro'yi-rost ochuvchi, uni tadqiq va tahlil qiluvchi xislatga ega bo'lishi kerak; hayotning obyektiv manzarasini xolis tasvirlovchi yozuvchi bo'lishi lozim".

Mustaqillikdan keyin yaratilgan darsliklarda liro-epik asarlarni o'qitish yuzasidan yaxshi bir tajriba qo'llandi va amaliyotda kutilgan natijalarni berdi. Unga ko'ra asardan olingan parchalar keltirilar ekan, asar syujeti haqida to'liqroq tasavvur uyg'otish uchun avval nasriy boshlanma va turli o'rinlardan olingan qismlarini o'zaro bog'lash maqsadida nasriy izohlar berib boriladi. Bunday nasriy izohlar berib borilishi tavsiya qilinayotgan asarlarga xos bo'lgan matn tilining u qadar murakkab emasligi, ifodaning soddaligi mazmunni o'zlashtirishda qiyinchilik tug'dirmaydi. Tahlil davomida o'quvchilarning asarda tasvirlangan hayot murakkabliklarini, manfiy va musbat tomonlarni ko'ra olishlari, obrazlar xatti-harakati, gap-so'zlariga qarab ularning ichki olamini, xarakter xususiyatlarini idrok etishlari muhim. Eng asosiysi, 5- va 6-sinflarda liro-epik asarlarni tahlil qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirib olish kerak. Shunda o'quvchilar keyingi sinfda Alisher Navoiy "Xamsa"sidan olingan tili og'ir, ifodasi murakkabroq bo'lgan parchalarni o'zlashtirishga bilim, malaka borasida, shuningdek, ham aqlan, ham ruhan tayyor bo'ladilar. Avvalo adabiyot o'qituvchisi darslikdagi ma'lumotlar asosida "Xamsa" asari, uning o'ziga xos belgilari, unga qo'yiladigan talablar, "Xamsa" va

dostonlarning gʻoyaviy-badiiy yoʻnalishi toʻgʻrisida qisqa maʼlumot bergani maʼqul. Oʻquvchilar “Xamsa” olamiga kiritib olingach, dostonidan olingan parcha oʻqib oʻrganishga tushiniladi. Gʻazallarni oʻrganishda qoʻllangan tajriba Alisher Navoiy dostonlarini oʻzlashtirishga ham tatbiq qilinadi. Har bir baytning tahlili quyidagi tartibda amalga oshirilsa, kutilgan pedagogik natijani beradi: 1) tushunilishi qiyin soʻzlar maʼnosi aniqlab olinadi; 2) oʻquvchilar baytda izofali birikma bor-yoʻqligini aniqlaydilar, agar boʻlsa, ularni izofadan chiqaradilar; 3) oʻquvchilar bayt yoki misralarni odatdagi gap boʻlaklari tartibiga keltirib, matn maʼnosi talabiga koʻra matnni toʻldiruvchi qoʻshimcha soʻzlarni qoʻyib oladilar; baytda shoir bildirayotgan fikrlarni oʻz soʻzlari bilan tushuntirib beradilar. Lekin dars butunlay matn (bayt)dan maʼno chiqarish mashgʻulotiga aylanib qolmasligi kerak. Ayrim oʻqituvchilar shogirdlari topshiriqni kutilgandek uddalayotganiga berilib ketib, har bir masnaviydan kelib chiqadigan hayotiy mazmunni, undagi badiiy jozibani aniqlashni unutadilar. Oʻquvchilarda mumtoz badiiy tafakkur tarzini shakllantirmay turib, ularning mumtoz asarlarni ham aqliy, ham ruhiy idrok etish malakalari ega boʻlishlarini taʼminlab boʻlmaydi. Shu sababdan liro-epik asarlarni tahlil qilish uslubiyatini yaratish darkor, deb hisoblaymiz.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, nazariy bilimlarni berishda oʻquvchilarning adabiyotdan va boshqa fanlardan olgan bilimlari, orttirgan tajribalari, koʻnikma va malakalariga tayanish yuqori samara garovi boʻlib xizmat qiladi. Nasriy asarlarni oʻqitishda bir tomondan bu turdagi asarlarning gʻoyaviy-badiiy oʻziga xosligi eʼtiborga olinsa, ikkinchi tomondan oʻquvchilarning lirik asarlarni tahlil qilishda egallagan koʻnikma va malakalariga tayaniladi. Ayniqsa, mumtoz badiiy tafakkurga xos boʻlgan ramziylik va majoziylikni, maʼno qatlamlilik hamda til xususiyatlarini idrok etishda orttirilgan tajribalar qoʻl keladi

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Abduqodirov A. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari.2017

2. Alisher Navoiy.Mukammal asarlar to`plami.11-tom.Xamsa.Toshkent."Fan",2002
3. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-2008
4. Muttalibov S,Ochilov E.Alisher Navoiy.Hikmatlar.-Toshkent,Sharq.2010
5. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari.2014
6. Yuldosheva.S.Maktabda aruz vaznini o`qitish metodikasi.2019